

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
MAGISTRATURA VA SIRTQI TA'LIM FAKULTETI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

**DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YESHIMLAR**

UO'K: 808.5; 82.01

TASHKILOTCHILAR:

N. Ramazonov, Sh. Ko'chimov, G. Gulyamova, D. Hoshimova,
Sh. Ziyamuhamedova, N. Niyazova, D. Rasulmuhamedova, N. Bozorova,
R. Matenov, U.Po'latova, A. Fattaxova, D. Raxmonova, N. Babadjanova

**“DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YESHIMLAR**

**МЕМЛЕКЕТТИК ТІЛДЕ ЗАҢ ШЫҒАРУ:
МӘСЕЛЕЛЕРІ МЕН ШЕШУ ЖОЛДАРЫ**

**ЗАКОНОТВОРЧЕСТВО НА
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЯЗЫКЕ:
ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ**

**LAWMAKING IN THE STATE
LANGUAGE:
PROBLEMS AND SOLUTIONS”**

III xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
to'plami



Toshkent - 2023

“Davlat tilida qonun ijodkorligi: muammo va
yechimlar / Мемлекеттік тілде заң шығару:
мәселелері мен шешу жолдары / Законотворчество
на государственном языке: проблемы и решения /
Lawmaking in the state language: problems and solutions”
III xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami.
– Toshkent: TDYU, 2023. – 232 b.

Ushbu to'plamdan Toshkent davlat yuridik universitetida “Davlat tilida
qonun ijodkorligi: muammo va yechimlar / Мемлекеттік тілде заң шығару:
мәселелері мен шешу жолдары / Законотворчество на государственном
языке: проблемы и решения / Lawmaking in the state language: problems
and solutions” mavzusida o'tkazilgan III xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari o'rin olgan. Konferensiya 2023-yil 20-oktabrda bo'lib o'tdi.

Hamkorlarimiz: Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston
universiteti Jurnalistika va qozoq tili kafedrasi (Qozog'iston); Tojikiston davlat
huquq, biznes va siyosat universiteti Tojik tili kafedrasi (Tojikiston).

MUNDARIJA

Shuhrat KO'CHIMOV	
NORMA IJODKORLIGI: XALQARO VA MILLIY TAJRIBA	7
Gulnora GULYAMOVA	
QONUN IJODKORLIGIDA SO'Z TANLASHNING AHAMIYATI	12
Mavluda AXMEDSHAYEVA	
QONUN HUIJTTLARI TILIGA OID AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALAR	16
Mirodil BARATOV	
MAMAKATIMIZDA DAVLAT TILI HAQIDAGI QONUN IJROSI: VOQELIK VA ISTIQBOLLAR (FUQAROLIK QONUNCHILIGI MISOLIDA)	21
Лаззат ТУРАБАЕВА	
ТИЛДІК КОММУНИКАЦИЈЛЫҚ ҚЫЗМЕТТИҢ ФОРМАСЫ	27
Nodir RAMAZONOV	
YURIDIK TERMINLAR TEZAURUSINI TAKOMILLASHTIRISHNING GALDAGI VAZIFALARI	33
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ	
ҚОЗОҚ МАЪРИФАТПАРВАР АЈАШ ПАРТИЯСИ ВА УНИНГ ТИЛ СИЁСАТИ	39
Туграл ШОКИРОВ, Мухтабар ГАЗИЕВА	
ТЕРМИНЫ СПРАВЕДЛИВОСТИ В «АВЕСТЕ»	42
Дилдархон ХАШИМОВА	
Қ ВОПРОСУ ЯСНОСТИ И ДОСТУПНОСТИ ЮРИДИЧЕСКОГО ЯЗЫКА	53
Firyuza MUHITDINOVA, Madina XAMZAYEVA	
O'ZBEK TILINING DAVLAT TILI MAQOMINING TARIXIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ISTIQBOL	56
Rustam SHARIPOV	
NAVOIY DAHOSI VA HOZIRGI O'ZBEK SHE'RIYATI	69

Rustam SHARIPOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Tarjima shunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedras
dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

NAVOIY DAHOSI VA HOZIRGI O'ZBEK SHE'RIYATI

Kirish. Bugungi kunda yosh avlodni Vatan tarixining shonli sahifalari, umumbashariy an'analari, yuksak ma'naviy-ma'rifiy e'tiqod ruhida tarbiyalash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, Hazrat Navoiy kabi mutafakkir daholarning shaxsiyati va umrboqiy asarlari o'tmishni bugun bilan tutashirib, hammaga birdek beminnat nur sochib turgan oftob singari zamondoshlarimiz ma'naviy olamini yoritib, komillik sari da'vat etib turuvchi mayoq vazifasini o'tab kelmoqda.

Alisher Navoiy – butun turkiy olam, jahon adabiyotida betakror siymo. Uning merosi, asarlarida ilgari surgan g'oyalari va fikr-qarashlar barchamiz uchun mo'tabar va qimmatlidir. Ushbu siymo o'zbek madaniyati, adabiyoti, tili, ijtimoiy fikri tarixida benihoya katta o'rin tutadi. Uning ijodi turkiy xalqlarning vatanparvarlik harakati kuchaygan bir sharoitda kamol topib, o'zbek adabiyotini mumtoz adabiyot darajasiga ko'tarishga xizmat qilgan. Navoiy dahosi esa Sharqning Firdavsiy, Nizomiy, Jomiy kabi ulug' adiblari qatoridan joy egallab, o'zbek adabiyotini mana shu siymolar yaratgan buyuk adabiyot darajasiga olib chiqqan.

Maqsad va vazifalar. Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy o'z faoliyati va ijodi bilan o'zbek adabiy tiliga asos solganligini, o'zbek adabiyotining mumtoz adabiyot darajasiga ko'tarilishidagi mislsiz xizmatlarini ochib berish, shuningdek shoir asos solgan badiiy-ma'naviy an'analarning hozirgi o'zbek she'riyatida ham ijodiy davom ettirilayotganini ko'rsatib berish.

Tadqiqot usuli: adabiy-tarixiy va qiyosiy adabiyotshunoslik.

Erishilgan natijalar: Alisher Navoiy turkiy adabiy tilni (eski o'zbek adabiy tilini) taraqqiy ettirish, uni ko'pchilikka manzur qilish, bu tilni she'riyat dunyosiga tan oldirish qanchalik qiyin va mashhaqqatli ish ekanini, buning uchun o'sha davrda Movarounnahr va Xurosonda hukmron bo'lgan fors tilidagi adabiyotga mazmun va badiiy qiymat tomonlaridan teng adabiyot yaratish zarur ekanligini yaxshi tushungan va bunday ulug' vazifani amalga oshirishga to'laqonli muvaffaq bo'lgan edi.

Shuni aytish kerakki, turkiy va forsiy tillarning o'zaro munosabati haqida Navoiy o'zining qator asarlarida fikr yuritadi. Masalan, "Hayrat-ul-abror" dostonida shoir fors eli o'z ona tillarida yozilgan asarlarni o'qishdan xursandligi, turkiylar ham ana shunday boylikdan bahramand bo'lishga loyiq ekanligi, "Layli va Majnun" asarining oxirida bu rivoyatni turkcha hikoya qilganligi, turkiylar orasida xushta'b, sof idrokli odamlar ko'p ekanligi haqida yozadi. "Muhokamat-ul-lug'atayn" asarida turkiy va forsiyning ifoda qudrati bir-biriga qiyoslanadi. Bunday dalillarga qarab Alisher Navoiyning butun umri davomida qiziqtirgan, o'ylashga majbur qilgan lisoniy muammo - turkiy va forsiy tillarning bir-biriga munosabati, turkiy tilning ifoda qudrati forsiy tilning ta'sirchanligidan kam emasligini isbotlashga intilishdan iborat bo'lgan.

Navoiy davrida Movarounnahr va Xurosonda yashagan turkiy aholining savodxonlik darajasi va madaniy-ma'rifiy saviyasi qanday bo'lganligi hali maxsus o'rganilgani yo'q. Lekin mavjud ma'lumotlarga tayanib, bu haqda ma'lum xulosalarga kelish mumkin. Alisher Navoiyning qator asarlarida turkiy aholining shoir va olimlari, bilimdon va g'azalxon vakillari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar bor. Bu ma'lumotlarga turkigo'y shoirlar va she'r havaskorlari tomonidan tez-tez o'tkazib turilgan g'azalxonlik oqshomlari haqidagi ma'lumotlarni qo'shsak, Navoiy davrida turkiy aholining savodxonlik darajasi, madaniy-ma'rifiy saviyasi yuksak bo'lgan, turkiy ziyolilar to'laqonlik, qizg'in aqliy

va madaniy-ma'rifiy hayot kechirgan, degan xulosaga kelish qiyin emas. Bu madaniy-ma'rifiy muhit, turkiy ziyolilar faoliyati va nutqi, oliy hokimiyatning xayrixohligi Navoiy ijodiy faoliyatiga, uning asarlari tiliga jiddiy ta'sir etgan omillardan bo'lganini to'la ishonch bilan aytish mumkin.

Navoiy davri turkiy adabiy tilining etnik-lisoniy zaminini haqidagi masalaning yana bir tomoni bor. Turkiy tilning ifoda qudratini namoyish qilish uchun "Muhokamat-ul-lug'atayn" asarida keltirilgan 100 ta fe'lining bir qanchasi boshqa manbalarda uchramaydi. Bu dalil Navoiy xalqning jonli tiliga jiddiy qiziqish va hurmat bilan qaraganidan, xalq tili boyliklarini tinimsiz o'rgangani, to'plagani va ulardan foydalanganidan dalolat beradi.

Eski o'zbek adabiy tili, xususan Navoiy tili xalqimiz ijodiy qudratining bebaho mahsulidir. U hozirgi adabiy tilimiz shakllanishida zamin va tayanch manba bo'ldi. Shu bilan bir qatorda, eski o'zbek adabiy tili, jumladan Navoiy tili, bu tilda yozilgan va saqlanib kelayotgan adabiy, tarixiy, ilmiy va boshqa manbalar xalqimiz uchun bitmas-tuganmas ma'naviy xazinadir. Va bu xazinadan nafaqat oddiy kitobxon, balki deyarli barcha shoir va yozuvchilar hozirga qadar ma'naviy-ruhiy ozuqa olib, ijod qilib kelayotganlarining guvohi bo'lib turibmiz.

Misol uchun, taniqli shoir A'zam O'ktam o'zining "Alisher Navoiy" nomli hajman mo'jazgina she'rida buyuk allomaning ruhiy-badiiy qiyofasini yaratarkan ekan, tildagi tasviriy vositalardan foydalanishda so'zlarga o'ziga xos uslubiy vazifa yuklaydi.

Poetik asarlar tilining hissiy-badiiy saviyasini, ta'sirchanligini ta'minlovchi, obrazlilik hosil qiluvchi lingvopoetik vositalardan biri o'xshatishdir. She'r "Ko'k - dasturxon, oymomo - non muqaddas, Tegasida sochilmishdir ushoqlar" satrlari bilan boshlanadi. Shoir Hazrat Navoiyga murojaat qilib, "Siz osmondan ulug' va yuksak, oymomodek tanhosiz" demaydi, ko'pchilikka tanish so'zlardan va siyqasi chiqqan oddiy tashbehlardan qochadi, balki zamonaviy tilshunoslikda yetakchilik qilayotgan

antropotsentrik yoʻnalishga mos keladigan yangi poetik tasvir yaratadi hamda oʻxshatish vositasida shu fikrni isbotlashga urinadi.

Aʼzam Oʻktam Hazrat Navoiyning komillik fazilatlarini osmonga mengzaydi - yuksak va qoʻl yetmas, uning nazdida dasturxon tegrasida sochilgan ushoqlar ulugʻ mutafakkir qalamidan toʻkilgan munavvar durlardir. "Koʻk - dasturxon, oymomo - non muqaddas" satridagi *dasturxon* va *non* konsentrlari oʻzida dunyodagi jami ijobiy fazilatlarini, muqaddas qadriyatlarini ifodalaydigan, inson ruhiyatiga taskin va malham beruvchi tushunchalar uygʻunlashib, oʻquvchini oʻylashga, fikrlashga undaydigan poetik manzara hosil boʻladi - "*Tegrasida sochilmishdir ushoqlar*".

Aʼzam Oʻktam poetik taʼsirchanlikni kuchaytirish maqsadida *uchoq* obrazini matnga olib kiradi. *Toptay olmas izgʻisa ham basma - bas, Turli nomlar olib uchgan uchoqlar*" - Hazrat Navoiyning dunyo boʻylab sochilib ketgan va hamon dunyoni hayratga solayotgan, turli davrlarda "*turli nomlar bilan izgʻigan*" tuzumlarning sinovlariga bardosh bergan asarlarining mohiyati bugun ham oʻz qimmatini yoʻqotmaganligi, u hamma zamonlarda osmondek yuksak va nondek muqaddas ekanligi ishonch bilan taʼkidlanadi.

Aʼzam Oʻktam ulugʻ shoir ruhiy olamidagi ziddiyatlarga yechim izlayotganday tasavvur paydo boʻladi. Shoirning ichki iztiroblari, dramatik kechinmalari shu oʻrinda oʻz kulminatsion nuqtasiga chiqadi va muallif metafora yordamida oʻz maqsadini bayon qiladi: "*Yeb qoʻyolmas shart sindirib hech inson, hech qanday kuch terolmas bu ushoqni*". Sheʼriy satrlarning ushoqqa nisbat berilishi oʻquvchi koʻngliga qandaydir sokinlik olib kiradi, unga lirik qahramon ichki kechinmalari, ruhiyatidagi toʻfonlar va evrilishlar haqida ishora beradi. "*Tupurulmas - muqaddas bu dasturxon, ezgʻilolmas hech kimsaning oyogʻi*". Shoir satrdan - satrga poetik tasvirni kuchaytirib boradi, uning oʻxshatish vositasida kutilmagan xulosaga kelishi kitobxonni oʻylashga majbur qiladi.

Aʼzam Oʻktamning "Alisher Navoiy" sheʼridagi falsafiy ruh inson hissiyotining turli epkinlar girdobidagi holatini metafora yordamida ishonarli va taʼsirchan ifodalaydi. Maʼlumki, individuallik, yaʼni oʻziga xoslik har bir ijodkorning soʻz tanlash sanʼati bilan belgilanadi. Shu tarzda shoirning badiiy tafakkuri, soʻzni his qilishi, idrok etishi, eng asosiysi uning lisoniy layoqati, yaʼni lingvistik mahorati haqida tasavvurga ega boʻlamiz.

Yoki yana bir misol. Isteʼdodli shoir Minhojiddin Mirzoning "Navoiy xazinasini" sheʼrida Hazrat Navoiyning komillik sifatlarini hissiy zavqlarni chiroyli ifodalab beradigan yorqin, obrazli tilda madh etiladi:

Soʻz mulkida faxri olam, xizri roh,
Ishq darsida murshidi irfon panoh.
Ey koʻngil, kel, taʼb ganjidan boʻl ogoh.
Navoiydan risolatni oʻrganaylik.

Shoir qalb nidosi bilan Hazrat dahosi va asarlarining tub mohiyatini ochishga, uni bugungi oʻquvchiga anglatishga intiladi. Navoiyni Xizrga qiyoslaydi. Oʻzbek tilining izohli lugʻatning 4-jildida shunday izoh berilgan: "*Xizr- yashillanmoq, yashil tusga kirmoq. Islom rivoyatlarida zikr etilgan hayot bulogʻidan obi hayot ichib, umri boqiy boʻlgan taqvodor shaxs.*" "*Roh*" soʻzi "*yoʻl*" maʼnosini (3-jild, 395-bet) anglatishini nazarda tutsak, shoir hazrat Navoiyni rivoyatlardagi afsonaviy Xizrga oʻxshatayotganini, sheʼriyatning mushkulotga toʻla yoʻlida yoʻlboshlovchi boʻlishiga ishonayotganini koʻramiz. *Ishq darsida murshidi irfon panoh: Murshid* - toʻgʻri yoʻlga soluvchi pir (2-jild, 647-bet) boʻlsa, *panoh* - boshpana, himoya qilish qudratiga ega boʻlgan homiy maʼnolarini anglatadi. *Ey koʻngil, kel, taʼb ganjidan boʻl ogoh: Ganj* - xazina, kon, boylik (1-jild, 481-bet), *Taʼb* - tabiat, kishining xarakterida, uning kishilarga, narsalarga munosabatida namoyon boʻladigan ichki tabiat (4-jild, 25-bet) boʻlib, shoir Hazrat Navoiyning koʻngli qaʼridagi biz bilmagan

ichki ko'ngli ham ulkan xazinadir, shuning uchun *Navoiydan risolatni o'rganaylik* (*risolat* - yuksak vazifa, vakolat, biror kasbga, sohaga va uning tartib-qoidalariga oid yo'riqnoma (3-jild, 386-bet) ya'ni, adabiyotdek, so'zdek yuksak vazifaga oid yo'l-yo'riqni ham biz Hazratdan o'rganamiz, degan fikrni ilgari suradi.

Farhod ila Majnun deb ishq shohini,
Laylo ila Shirin demish mohini,
Angladingmi, ey ko'ngil, sen ohini,
Navoiydan saodatni o'rganaylik.

Farhod, Majnun, Layli (she'rda Laylo tarzida qo'llangan) va Shirin Hazrat Navoiy dostonlarining qahramonlari. *Laylo ila Shirin demish mohini*. Ma'lumki, *moh* - oy ma'nosini anglatadi (2-jild, 621-bet). She'rda Layli va Shirinning husni "*moh*" so'zining an'anaviy go'zallik timsoli sifatidagi mavqei bilan asoslangan, matnda metaforik sifatlashni hosil qilib, Navoiy qahramonlarining chiroyi oyga o'xshatilyapti. Bu o'rinda, Layli va Shirin go'zallik bobida oy kabi tanho edi, degan ma'noni ham ilg'ash mumkin. *Navoiydan saodatni o'rganaylik*: *Saodat* - baxt, omad, xotirjamlik va yuksak iqbolni bildiradi (3-jild, 443-bet).

Demak, mutafakkir shoirning ko'ngil ohini anglagan inson undan saodatni, ya'ni qalb xotirjamligi va yuksak iqbolga eltuvchi yo'lni o'rganadi.

Bahr aro topgan xazinam tiynati,
Ulki iymon kishvarining ziynati,
"Qush tili" da jam e'timod, niyati,
Navoiydan hidoyatni o'rganaylik.

"O'zbek tilining izohli lug'ati" 1-jildining 197-betida "*bahr*" so'zining 4ta ma'nosi borligi, 1) dengiz, okean; 2) olam, dunyo, boylik; 3) tug'yon, to'fon; 4) mehr, ishq-muhabbat domi ma'nolarida kelishi qayd etilgan. Nazarimizda, mazkur to'rtta

ma'noni qo'llaganimizda ham she'rning ta'siri yanada kuchayadi. *Tiynat* - tabiat, xarakter (4-jild, 86-bet), *iymon* - Ollohga ishonch, e'tiqod, (2-jild, 185-bet), *ziynat* - chiroy, bezak, ko'rak, izzat-hurmat (2-jild, 149-bet), *kishvar* - mamlakat, o'lka (2-jild, 379-bet), *e'timod* - tayanch, suyanish, qattiq ishonch (5-jild, 67-bet), *hidoyat esa* - to'g'ri yo'lga boshlash, boshqarish ma'nolarini anglatadi (5-jild, 526-bet).

Demak, olam aro topilgan xazinaning mohiyati, ishonch va e'tiqod mamlakatining chiroyi, ko'rki va izzat-hurmati, ulug' shoirning "Qush tili" asarida jamlangan ishonchi tufayli Hazrat Navoiydan to'g'ri yo'lga boshlashni, boshqarishni o'rganamiz.

"Saddi Iskandariy" - bil, zulmatda jon,
"Sab'ai sayyor" erur bir imtihon,
"Hayratul - abror" ichinda dil nihon,
Navoiydan adolatni o'rganaylik.

Ko'rganimizdek, Minhojiddin Mirzo insoniyat qorong'ilik yoki jaholat ichra qolganida hazrat asarlarini o'qib, jonini va iymonini asraydi, shu sinovlardan o'tgan "Hayrat ul-abror" dostonining mohiyatida yashiringan dilning niyatini anglagan insongina odilona ish yuritishga qodir, degan fikrga urg'u bergan.

Taniqli shoirlar A'zam O'ktamning "Alisher Navoiy" va Minhojiddin Mirzoning "Navoiy xazinasi" she'rlarining tahlili ularning ona tilimiz yashirin imkoniyatlarini, ichki jozibasini yaxshi bilishi va she'riyat tilining badiiyatini ta'minlovchi lingvopoetik vositalardan o'rinli foydalanishini ko'rsatib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Samarqandiy, Davlatshoh. Shoirlar bo'stoni ("Tazkiratu-sh-shuaro" dan) - T.: Adabiyot va san'at, 1967.

**DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**

2. Navoiy zamondoshlari xotirasida. – T.: Adabiyot va san’at, 1985.
3. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – T.: Akademiya, 2011.
4. Alisher Navoiy ijodiy va ma’naviy merosining olamshumul ahamiyati (xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari). – T.: O’zbekiston, 2011.
5. Vohidov R., Eshonqulov H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O’zYU Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2006.
6. Hayitmetov A. Temuriylar davri adabiyoti. – T.: Fan, 1996.
7. A’zam O’ktam. To’maris bilan suhbat. – T.: 2019.
8. Minhojiddin Mirzo. “Visol xabari”. – T.: 2003.